

## UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTEBLARIDA KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ FANINING O'QITILISH ISTIQBOLLARI: NAZARIYA VA AMALIYOT

ANDIJON YURIDIK TEXNIKUMI

SUD HUQUQIY FAOLIYATI

2-kurs talabalari

**Sobirova Ruxshonabonu**

**Raxmatullayev Jahongirmirzo**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitilayotgan konstitutsiyaviy huquq asoslari fanining o'qitilish afzalliklari va o'qitishdagi metodikalar nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Konstitutsiyamizdagi belgilab qo'yilgan huquqlar real hayotimizda qanchalik ahamiyatli ekanligi, huquqlarsiz burchlar, burchlarsiz huquqlar bo'lmasligi, huquqlar bilan birgalikda majburiyatlar ham mavjud bo'lishi, konstitutsiyaviy huquq huquqning yetakchi tarmog'i sifatida qolgan barcha huquqiy fanlarni qamrab olishi, har kim o'z huquqlaridan mustaqil foydalana olishi, huquqiy ong va huquqiy madaniyat tushunchalari haqida so'z yuritiladi. Maqolada shuningdek, milliy qonunchiligimizdan tashqari xalqaro qonunchilikda ham ushbu fanning dolzarbligi, o'rta maktablarda uni o'qitish qanchalik muhim ekanini batafsil tushuntirib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** Konstitutsiyaviy huquq, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy huquqlar tushunchasi, fuqarolik huquqi, jinoyat huquqi, mehnat huquqi, ta'lim olish huquqi, burch, majburiyat, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, talab qilinmagan huquqlar, xalqaro tajriba, axloq va huquq.

### Kirish

O'zbekiston Respublikasining huquqiy fanlar tizimida "Konstitutsiyaviy huquq asoslari" fani yetakchi o'rin tutadi. Chunki, ushbu fan orqali huquq tizimida yetkachi hisoblangan Konstitutsiyaviy huquq o'rganiladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasida aytilganidek, Konstitutsiya yagona huquqiy makonning asosini tashkil qiladi va hech bir qonun va qonunosti hujjatlar ushbu Konstitutsiyaga zid bo'lmasligi o'z-o'zidan ko'rinib turibdi. Kundalik hayotimizda aynan shu fan har qanday huquqiy fanlar bilan chambarchas bog'langan. Shunday ekan ushbu fanni o'qitish har taraflama rivojlantirilishi shart.

Hayotimizning biror bir huquqiy sohasi yo'qki, u Konstitutsiyaviy huquq bilan bog'liq bo'lmasa. Zamonaviy dunyoda har bir shaxsning daxlsiz va ajralmas huquqlari ko'plab sohalarida majburiyat bilan birga kelar ekan, modomiki shaxs ularni talab qila olmasa, tabiiyki, talab qilinmagan huquqlar shaxsning huquqiy ongi yuqori emasligini

isbotlab qo'yadi. Ushbu maqolada shaxs sifatida shakllanib kelayotgan o'rta ta'lim maktabi o'quvchilari o'z huquqlaridan mustaqil foydalana olishi muhim ekanligi haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, bu fanga qiziqish qay darajada qamrab olinayotganini ta'minlashda ta'lim muassasalari va davlat tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ham ko'rib chiqiladi.

Konstitutsiyaviy huquq o'zi nima?

**Konstitutsiyaviy huquq** — Konstitutsiyaviy tuzum asoslarini, shaxsning huquqiy holati asoslarini, jamiyat va shaxs munosabatlarini, ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi masalalarini, hokimiyatni tashkil etish va ularning faoliyati bilan bog'liq masalalarni tartibga soluvchi huquqiy normalar yig'indisidan iborat huquq tarmog'i.

Ana shu masalalar va ularni tartibga soluvchi huquqiy normalar "Konstitutsiyaviy huquq" fani tomonidan o'rganiladi. "Konstitutsiyaviy huquq" fani mavjud ijtimoiy munosabatlar huquq normalariga mos kelishi masalasini o'rganib, ijtimoiy munosabatlarni yanada to'g'riroq tartibga solish, ularning rivojlanishiga imkon beradigan huquq normalarini yaratish, mavjudlarini yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishni maqsad qilib qo'yadi.

"Konstitutsiyaviy huquq" ning ta'lim jarayonidagi vazifasi Konstitutsiyani o'quvchilarga chuqur o'rgatishdir. Bu fan orqali Konstitutsiyaning ahamiyati, vazifasi, funksiyasi, yuridik tabiati, davlat tuzilishi, hokimiyatni tashkil etish, shaxsning huquqiy holati, jamiyat, fuqaro, davlat munosabatlari o'rganiladi. "Konstitutsiyaviy huquq" fanining vazifasi faqat Konstitutsiyaviy huquq normalarini o'quvchilar ongiga singdirish bilan cheklanmay, u o'quvchilarda qonunga, Konstitutsiyaviy tuzumga, boshqa fuqarolarga nisbatan hurmat tuyg'usini shakllantirish vazifasini ham boshqaradi. Konstitutsiyani chuqur bilish orqali Vatanga sadoqat, jamiyatga hurmat paydo bo'lib, belgilangan burchlarni ixtiyoriy bajarishga intilish vujudga keladi. Shuning uchun ham Konstitutsiyani o'rganishga mamlakatimizda alohida e'tibor beriladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy huquqlar

Konstitutsiyamizning 9-bobi aynan shu huquqlarga bag'ishlangan bo'lib, unga ko'ra fuqarolarning mehnat qilish qobiliyati yo'qolganda yoki pasayganda, davlat ularni qo'llab-quvvatlashi, xalqaro hujjatlar talabidan, davlatning insoniylik g'oyasiga sodiqlik prinsipi bilan kelib chiqadi. Kishi o'zining kuch-quvvatini, aqlini, qolaversa, ularning ma'lum qismini davlat idora, korxona, muassasalarida mehnat qilishga sarflash bilan, nafaqat, o'zining moddiy ehtiyojini qondiradi, shu bilan birga davlatga, uning korxona, tashkilot, muassasalarining rivojlanishiga, moddiy jihatdan mustahkamlanishiga ham hissa qo'shadi. Shuning uchun kishilar qariganda yoki boshqa sabablar bilan vaqtincha yoki butunlay mehnat qobiliyatini yo'qotganda, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Fuqarolarni ijtimoiy tomondan qo'llab-

quvvatlashning huquqiy asosi bo‘lib, Konstitutsiyada fuqarolarning ijtimoiy ta‘minot olish huquqining belgilanishi hisoblanadi. Konstitutsiyaning **46-moddasida** bu quyidagicha belgilangan: “Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo‘qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo‘lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta‘minot olish huquqiga ega. Qonunda belgilangan pensiyalar, nafaqalar va boshqa turdagi ijtimoiy yordamning miqdorlari rasman belgilangan eng kam iste‘mol xarajatlaridan oz bo‘lishi mumkin emas.” Mamlakatimizning iqtisodiy qudrati oshishi fuqarolarning ijtimoiy jihatdan huquqlari kengayishiga, ijtimoiy imkoniyat yuqorilashiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatmay qolmaydi. Buni pensiya va boshqa ta‘minot miqdorlarining bosqichma-bosqich oshib borayotganligidan ko‘rish mumkin. Masalan, endilikda mamlakatimizda mahallalarda ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga subsidiya ajratish yo‘lga qo‘yildi, “Inson” ijtimoiy himoya markazi faoliyati ishga tushirildi, “Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi” muhtoj oilalarga yordam va ishsizlarni ish bilan ta‘minlash ishlarini olib borishi faoliyati amalga oshirilmoqda.

Fuqarolik huquqi tomonlama qarasak, eng yaxshi huquqlaridan biri bu albatta davlatimiz konstitutsiyasining **23-moddasida** to‘liq ifodalangan: “O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida ham, uning tashqarisida ham o‘z fuqarolarini himoya qilish va ularga homiylik ko‘rsatishni kafolatlaydi. O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi O‘zbekistondan tashqariga majburiy chiqarib yuborilishi yoki boshqa davlatga berib yuborilishi mumkin emas. Davlat xorijda yashayotgan vatandoshlar bilan aloqalarni saqlab qolish hamda rivojlantirish to‘g‘risida xalqaro huquq normalariga muvofiq g‘amxo‘rlik qiladi.”

Bugun mamlakatimizda fuqarolikka ro‘yxatga olish va uni rasmiylashtirish, fuqarolik huquqlaridan foydalanish kabi ishlar yuz foiz ta‘minlangan, yaxlit tizimlar orqali avtomatlashtirilgan. Bu o‘z navbatida qonunlariga og‘ishmasdan amal qilishni, inson faktori orqali ro‘y berishi mumkin bo‘lgan kelishmovchiliklar va kamchiliklarini bartaraf eta oladi.

“Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo‘li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanadi. Ayblanuvchiga o‘zini himoya qilish uchun barcha imkoniyatlar ta‘minlanadi. Aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo‘lsa, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi kerak. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o‘zining aybsizligini isbotlashi shart emas va istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi mumkin. Hech kim o‘ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emas. Agar shaxsning o‘z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo‘lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emas. Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar o‘ziga nisbatan insoniy muomalada bo‘linishi hamda inson shaxsiga

xos bo'lgan sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilinishi huquqiga ega. Shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo'lishi mumkin emas" Konstitutsiyamizning **28-moddasida** berilgan ushbu huquqlardan ko'rinib turibdiki, konstitutsion huquqlar jinoyat va jinoyat-protsessual huquqlar kabi jarayonlarda insonlar hayotiga ta'sir qilmay qolmasligi alohida ta'kidlanishi lozim bo'lgan jihat. Hozirgi vaqtda milliy qonunchiligimizda "Miranda qoidasi" va "Xabeas korpusi" bor ekanligi katta yutuq sanaladi.

Ushbu fan hozirgi vaqtda umumta'lim maktablarida o'qitilar ekan, unda bir qator zamonaviy va sinalgan metodlar qo'llanilib kelinmoqda. Jumladan, o'qitishda Yaponiya, AQSh, Finlandiya kabi davlatlar tajribasi o'rganilib amaliyotga tadbiq etilar ekan, ta'limning ham nazariy ham amaliy shakliga birdek e'tibor berilmoqda. Bu orqali ta'lim tizimida yaxlit muvozanat yuzaga kelmoqda va dual ta'lim sifati yuqori cho'qqiga chiqmoqda. Ayniqsa, Finlandiya ta'limi orqali, aqliy hujum va ilmiy qiziqarli o'yinlar orqali fanga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Yana shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, ta'lim tizimimizda oddiy ma'ruzalar o'rnini videoyozuvli darslar, aniq va amaliy misollar keltirib tushuntirib o'tilgan qo'llanma formatidagi videodarslar orqali tushuntirish bilan yana ham katta natijalarga erishish kutilmoqda. Bir so'z bilan aytganda, o'quvchilarni o'z huquqlariga bo'lgan munosabatini o'stirish yo'lida ustozlar bir qator yangiliklar va g'oyalarni ilgari surmoqdalar.

Xulosa qilib aytish mumkinki, aynan Konstitutsiyaviy huquq fanini o'rganish orqali, huquqiy sohani o'rganmoqchi bo'lgan insonlar o'z sohasi uchun poydevor qurishni boshlashadi, huquqiy sohadan farqli soha vakillari esa, o'z huquqlarini amalga oshirish va undan samarali foydalanish, davlat va jamiyat, shuningdek fuqaro sifatida davlat o'rtasida muvozanatda yuzaga keladigan holatlar bo'yicha o'z huquqiy ma'lumotlarini mustahkamlab olishmoqda. Bu fanni chuqur o'zlashtirish orqali yuqori darajadagi demokratlashgan fuqarolik janiyatini tashkil etish uchun zarur bo'lgan huquqiy ong va huquqiy madaniyat shakllanmoqda. Bu esa, muvaffaqiyatli, odil va demokratizm prinsiplari yaxshi shakllanishi kerak bo'lgan har qanday davlat uchun kerakli jihat sanaladi.

#### Manbalar:

1. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 30.04.2023
2. O.T.Husanov "Konstitutsiyaviy huquq" darslik
3. [https://constitution.uz/oz/pages/Konstitutsiyamizning\\_yaratilishi](https://constitution.uz/oz/pages/Konstitutsiyamizning_yaratilishi)
4. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 1-qism
5. O.Karimova, N.Ismatova, Sh.Sariqov, O.Amanova "O'zbekiston davlati va huquqi asoslari" darslik

6. Davlat va huquq asoslari 9-sinf darsligi G. M.TANSIKBAYEVA, V. A. KOSTETSKIY 2019
7. KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ DARSLIGI "ADOLAT" 2013
- MUALLIFLAR:HUSANOV O. T

